

TA'LIM TIZIMINING QONUNOSTI HUJJATLARI VA ULARNING MAZMUNI

M.N.Ne'matova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Raqamli iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda ta'lrim to'g'risidagi qonun osti hujjatlari va ularning mazmunini tahlil qilgan holda talabalarda ta'limi tizimi va uning boshqaruviga oid taassurotlar uyg'otish ularni tatbiq etish va rioya etishga doir ba'zi ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Shu jumaladan Prizident farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lrim tizimi, qonun, qonun osti hujjatlari, qarorlar, farmonlar, farmoyishlar.

Kirish. Qonunosti hujjatlari tushunchasi va ularning turlari. Normativ-xuquqiy hujjatlari o'zining quyidagi uch xususiyati bilan ijtimoiy normalarning boshqa turlaridan ajralib turadi. 1) normativ-huquqiy hujjatlari vakolatli davlat organlari tomonidan yaratilib, barcha uchun umumiylar majburiy qoidalarni o'rnatadi, o'zgartiradi yoki bekor qiladi; 2) ularda huquqiy qoidaning mazmuni, ya'ni huquqiy munosabat ishtirokchilarining xuquq va burchlari ifoda etiladi; 3) normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan qoidalari bajarilmagan yoki buzilgan taqdirda muayyan huquqiy oqibatlar kelib chiqadi, qoida bo'yicha, davlatning majburlov kuchi ishga solinadi. Qonunosti hujjatlari quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;

Vazirlar Mahkamasining qarorlari;

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Qonunosti hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinadi. Shunga muvofiq sizlar bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

Qarori Xalq ta'limi boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida qisqacha korib chiqamiz.

Ta'lrim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida

Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoniga muvofiq:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (keyingi o'rnlarda — Davlat inspeksiyasi) hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 1-martdan boshlab xorijiy davlatlarda berilgan ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiya qilish (ekvivalentligini qayd etish) tartibini joriy etish bo'yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi:

a) O'zbekiston Respublikasi hududida alohida bo'linmalari (filiallari) va qo'shma ta'lim muassasalari faoliyat yuritayotgan xorijiy ta'lim muassasalarida ta'lim olgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning (keyingi o'rnlarda — fuqarolar);

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Davlat inspeksiyasining qo'shma qarori bilan ro'yxati har yili tasdiqlanadigan xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education, Academic Ranking of World Universities) reytingida oliy ta'lim muassasalari orasida birinchi 1 000 o'rinni egallagan xorijiy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olgan fuqarolarning;

Tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan O'zbekiston Respublikasi vazirlik va idoralarining yo'llanmalari asosida mutaxassislarini maqsadli tayyorlash uchun xorijiy davlatlar tomonidan ajratilgan kvotalar (grantlar) hisobidan ta'lim olgan fuqarolarning;

1992-yil 1-yanvargacha xorijiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirgan fuqarolarning;

Oliy ta'limda sifatni kafolatlash Yevropa assotsiatsiyasining (European Association for Quality Assurance in Nigher Education) to'laqonli a'zolari — vakolatli tashkilotlar tomonidan akkreditatsiya qilingan ta'lim muassasalarida ta'lim olgan fuqarolarning, ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan yo'nalishlar, mutaxassisliklar va kasblar bundan mustasno;

Amerika Qo'shma Shtatlari, Avstraliya Ittifoqi, Isroil Davlati, Kanada, Singapur Respublikasi, Koreya Respublikasi, Yaponiya davlatlarining ushbu davlatlar vakolatli tashkilotlari tomonidan akkreditatsiya qilingan ta'lim muassasalarida ta'lim olgan fuqarolarning, ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan yo'nalishlar, mutaxassisliklar va kasblar bundan mustasno;

xorijiy oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni maqsadli tayyorlash uchun O'zbekiston Respublikasining vazirlik va idoralari tomonidan ajratilgan mablag'lar hisobidan ta'lim olgan fuqarolarning;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan hollarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarini to'g'ridan to'g'ri (maxsus sinovlarsiz) tan olish va nostrifikatsiya qilish (ekvivalentligini qayd etish);

b) ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiya qilish (ekvivalentligini qayd etish) to'g'risidagi arizalarni faqatgina Davlat xizmatlari markazlari yoki O'zbekiston Respublikasining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali qabul qilish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

2. Davlat inspeksiyasiga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatilsin:

O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalari reytingini tuzish va rasman e'lon qilish;

O'quvchilarning bilim darajasini baholash bo'yicha xalqaro dasturlar va tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini ta'minlash;

Dunyoning yetakchi reyting tashkilotlari bilan hamkorlik qilish va milliy oliy ta'lim muassasalarining ushbu reytinglarga kirishiga har tomonlama ko'maklashish.

3. Milliy oliy ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganish hamda ushbu muassasalarda kadrlar tayyorlash sifatini, jumladan xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribani joriy etish orqali oshirish yuzasidan har chorakda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga takliflar kiritib borish uchun mas'ul bo'lgan Davlat inspeksiyasi boshlig'ining birinchi o'rinnbosari lavozimi kiritilsin.

Belgilansinki, Davlat inspeksiyasi boshlig'ining birinchi o'rinnbosari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda maqomi, tibbiy va transport ta'minoti sharoitlari bo'yicha vazirning birinchi o'rinnbosariga tenglashtiriladi.

4. Davlat inspeksiyasining boshqaruvi xodimlari cheklangan soni 108 nafardan iborat yangilangan tashkiliy tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Davlat inspeksiyasining boshlig'iga, zarur hollarda, xodimlarning o'matilgan cheklangan umumiyligi soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida Davlat inspeksiyasi tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

5. Davlat inspeksiyasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

ta'lim muassasalarining reytingini belgilovchi dunyoning yetakchi reyting tashkilotlari bilan hamkorlik o'rnatsin;

2019-yil 1-aprelga qadar ilg'or xorijiy tajribani o'rganish natijalariga ko'ra, ta'lif muassasalarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida hukumat qarori loyihasini ishlab chiqsin va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kirtsin;

2019-yil 1-iyunga qadar ta'lif muassasalari, pedagog xodimlar, ta'lif oluvchilar, ta'lif-tarbiya jarayoni va boshqa zarur axborotlar to'g'risida yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirishni o'z ichiga olgan ta'lif sifatini ta'minlovchi axborot tizimini joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlasin va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kirtsin.

6. Belgilansinki, 2019-yil 1-fevraldan:

pedagog kadrlarga birinchi va oliy malaka toifasi, yetakchi va bosh o'qituvchi lavozimi berish, shuningdek umumiyl o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida mazkur malaka toifasiga va lavozimiga talabgorlarga malaka toifasini berishda to'lanadigan yig'imlardan tushadigan mablag'ning 50 foizi Davlat inspeksiyasining budgetdan tashqari Rivojlantirish jamg'armasiga yo'naltiriladi (keyingi o'rnlarda — Jamg'arma);

Jamg'armaga tushadigan mablag'larning 80 foizgacha bo'lgan miqdori Davlat inspeksiyasi boshlig'ining qaroriga ko'ra, lavozim maoshining 200 foizigacha miqdorda oylik ustamalar to'lash, moddiy yordam ko'rsatish, xizmat vazifalarini vijdongan va tashabbuskorlik bilan bajarganligi uchun mukofot puli, shuningdek, mamlakat ichida va tashqarisidagi xizmat safarlari xarajatlarini to'lash tarzida xodimlarning moddiy rag'batlantirilishiga yo'naltirilishi mumkin.

7. Davlat inspeksiyasiga Jamg'armaning mablag'lari hisobidan quyidagi xarajatlarni to'lashga ruxsat etilsin:

Davlat inspeksiyasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarish doirasida davlat organlari va tashkilotlari, ilmiy va oliy ta'lif muassasalari, yetakchi xalqaro va xorijiy tashkilotlarning malakali mutaxassislari, shu jumladan ta'lif sohasidagi xorijiy ekspertlar va xorijda yashayotgan vatandoshlarni maslahatchilar sifatida jalb qilish;

Davlat inspeksiyasi xodimlarini ilmiy-tadqiqot, ta'lif va boshqa muassasalarda, shu jumladan xorijda o'qitish, malakasini oshirish va stajirovkadan o'tkazish;

Davlat inspeksiyasi, unga idoraviy mansub tashkilotlar va hududiy bo'limlarining faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish.

Natija. Xalq ta'lifi tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishning eng muhim sharti

hisoblanadi, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida ta'larning innovations shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashadi.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi ishlar holatini tanqidiy tahlil qilish xalq ta'limi tizimi boshqaruvini tashkil etish, davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalarining (keyingi o'rnlarda umumta'lim muassasalari deb yuritiladi) faoliyatini amaliy jihatdan muvofiqlashtirish, ularning moddiy-texnik holatini yaxshilash bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirishda bir qator muammolar va kamchiliklar mavjudligi aniqlandi

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda ta'limi tizimi to'g'risidagi qonunosti hujjatlari va ularning mazmuni bilish, ularni o'rganib tahlil qilish va ularga amal qilish asosiy mavzu, shu sababdan ularni yosh kadrlarga o'rgatish asosiy vazifa hisoblanadi. Shu sababdan, Prezident farmonlari va farmoyishlari keng ko'lamda tatbiq etish, uni o'rganish va tahlil qilish hammamiz uchun asosiy vazifa hisoblash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.01.2019 yildagi PQ-4119-son. <https://lex.uz/docs/-4164675>
2. "Ta'lim iqtisodiyoti" M.F.Hakimova, F.S.To'rabwekov Toshkent-2021
3. Konstitutsiyaviy huquq/O.T.Husanov/ Toshkent 2013
4. "Ta'lim iqtisodiyoti" M.F.Hakimova, F.S.To'rabwekov Toshkent-2021